

2. Ibragimov N.M., Hakimov SH.Z., Mirzayev L.A., "Mineral o'g'it meyorlarini kuzgi bug'doy NPKni o'zlashtirishi va yer usti biomassasiga ta'siri" // Tuproq unumdorligini oshirishning ilmiy va amaliy asoslari. 2-qism. Halqaro ilmiy-amaliy konferensiya ma'ruzalari asosida maqolalar to'plami. Toshkent, O'zPITI, 2007 yil, –B.234-236.
3. Абрамов Н.В., Салова Е.В. Исследование зависимости урожайности яровая пшеницы от содержания нитратного азота, подвижного фосфора и обменного калия в чернозема выщелоченном на основе математика – статических методов // "Агрохимия" – М.: 1997. №3. С. 27-32.
4. Ernazarov I., Ernazarova N. Kuzgi bug'doy qaysi holatda sovuq ta'siridan nobud bo'ladi? "O'zbekiston qishloq xo'jaligi" jurnali №11, 2013, B.22-23.
5. Rano, Ishmukhamedova, and Bobomurotova Mokhira. «Influence of Sowing Terms And Feeding Norms on Technological Quality Indicators of Wheat Grain.» Annals of the Romanian Society for Cell Biology 25.6 (2021): 2210-2217.
6. Каршиев А.Э., Бобомирзаев П.Х. Роль сорта, сроков и норм посева в технологии выращивания твёрдой пшеницы на богарах // журнал "Актуальные проблемы современной науки", № 4, 2022, 44-47 стр.

UO'T: 633:853.494:631.51

KUZGI RAPS NAVLARI URUG'LARINING DALA UNUVCHANLIGI, O'SIMLIKLARNING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGIGA EKISH MUDDATLARI VA ME'YORLARINING TA'SIRI

Xalilov Nasriddin, q.x.f.d., professor,

Ashirova Xadicha Yusup qizi, magistrant,

Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti

Tursunov Shermuxammad Nurmamatovich,

Don va dukkakli ekinlar ilmiy tadqiqot instituti Samarkand ilmiy-tajriba stansiyasi direktori.

Annotasiya. Maqolada kuzgi rapsning Yasna navining Samarqand viloyatining o'tloqi-bo'z tuproqlari sharoitida maqbul ekish muddatlari va me'yorlarini aniqlash hamda ularni hosildorligi va urug'larning dala unuvchanligi, ekish muddatlari va me'yorlarini ta'siri bo'yicha olingan tadqiqot natijalari bayon qilingan.

Kalit so'zlar: Raps Yasna, ekish muddati, ekish me'yor, nav, o'g'it, hosil.

Аннотация. В статье представлены результаты исследований по определению оптимальных сроков и норм посадки озимого рапса сорта Ясна в условиях лугово-серых почв Самаркандской области, а также их урожайности и полевой всхожести семян. Влияние сроков и норм посадки указано.

Ключевые слова: рапс Ясна, сроки посева, норма посева, сорт, удобрение, урожайность.

Abstract. The article describes the results of the preliminary research on determining the optimal planting dates and meters of the Yasna variety of winter rapeseed in the grassland soils of the Samarkand region, as well as the planting criteria for yield weight and seed quality.

Key words: Jasna rapeseed, sowing time, sowing rate, variety, fertilizer, yield.

Kirish. Raps yem-xashak va oziq-ovqat maqsadlarida yetishtiriladigan moyli ekin hisoblanadi. Uni oraliq ekin sifatida O'zbekistonda yashil massasi uchun ekish keng tarqalgan. Oraliq ekin sifatida yetishtirilganda hosildorligi bahorda 250-300 s/gani tashkil qiladi. Uning yashil massasi oqsilga boy shirali oziqalar guruhiga kiritiladi [4, 8].

Raps urug'lari tarkibida 40% qimmatbaho oziq –ovqat uchun yaroqli yarim quriydigan, tillorang o'simlik moyi mavjud. Uzoq vaqt saqlanganda ham rapsdan olingan moy rangi o'zgarmaydi va shuning uchun Yevropa davlatlarida is'temol uchun keng tarqalgan. Urug'larni qayta ishlashda hosil bo'ladigan kunjara va shrot chorvachilikda konsentrat yem sifatida ishlatiladi. Ular qishloq xo'jaligi hayvonlarining ratsioniga proteinli qo'shimcha ozuqa sifatida qo'shiladi [2, 8].

Rapsning yana bir jihati shundaki, u tuproqni potogen mikroorganizmlardan tozalaydi, xususan rapsdan keyin ekilgan g'ozada vilt kassaligi bilan zararlanish kamayadi, kislotali

tuproqlarni neytrallashtiradi. O'zbekistonda raps kuzda ekilganda juda yaxshi qishlab chiqadi beradi, qisqa muddatli qishgi sovuqqa bardosh bera oladi, kech kuzda doimiy sovuqlar tushguncha ko'k massa hosil qiladi [1, 2, 9].

Rapsni yashil massasini kuzda va bahorda siderat o'g'it sifatida yerga haydab tashlaganda tuproq unumdorligi, tuproq tarkibidagi gumus miqdori oshadi. Raps tuproqqa haydab tashlangan ekinlarning hosildorligi oshadi, fitosanitar holati, tuproq ekalogiyasi yaxshilanadi. Shu sababli uni almashlab ekish tizimiga kiritish tavsiya etiladi. Xitoyda raps urug'larini yetishtirish ham, uning iste'moli ham bir vaqtning o'zida o'sib bormoqda. Bunda 2012 yilning o'zidayoq raps o'simligi urug'larini qayta ishlash hajmi 3 mln tonnagacha oshgan. Bu davlat hozirda ham raps yetishtirishga va import qilishga alohida e'tibor qaratadi [9, 10, 4].

I.V.Artemov ta'kidlaganidek, chorvachilik faqatgina xo'jalikda yashil ozuqa bazasini yetarli tashkil etganidagina mahsuldor bo'lishi mumkin. Ma'lumki raps o'simligi yuqori kompensatsion

(to'ldiruvchi) imkoniyatga ega. O'simlik qalinligi yuqori bo'lganda ekinlar kam shohlanadi va o'simliklarda kam miqdorlardagi qo'zoqlar shakllanadi, ammo hosildorlik turlicha bo'lishi mumkinligi ham istisno emas [6, 7].

Tadqiqot materiallari va uslublari. Tadqiqotlarda barcha kuzatuvlar tuproq va o'simlik namunalari tahlillari hamda hisob kitoblar "Dala tajribalarini o'tkazish uslublari" (2014) [8] qo'llanmasi asosida o'tkazildi.

Tajriba o'tkazilgan maydonning tuprog'i o'tloqi-bo'z tuproqlar bo'lib, sizot suvlar 3-4 metr chuqurlikda joylashgan. Mexanik tarkibiga ko'ra yengil qumoq. Tajriba dalasi tuproqlarining haydov (0-30 sm) qatlamida gumus miqdori 1,20 %, yalpi azot 0,07-0,11; fosfor 0,10-0,13 va kaliy 1,75-1,82 % gacha ekanligi, xarakatchan N-NO₃, N- NH₄ birgalikda 13,5 mg/kg, xarakatchan fosfor 17,6 mg/kg, almashinadigan kaliy 276 mg/kg ni tashkil etgan. Tajriba obyekt Davlat reyestriga kiritilgan rapsning Yasna navi. O'tmishdosh g'o'za. Ekish SSFK-7 rusumli seyalkada o'tkazildi. Qator oralari 60 sm, urug'larni ekish chuqurligi 3-4 sm ni tashkil etdi.

Tajribada ma'danli o'g'itlardan ammiakli selitra-NH₄NO₃ (N-34 %), ammos-NH₄H₂PO₄ (N-11-12 %, P₂O₅-44-46 %) va kaliy xlorid -KCl (K₂O-60%) qo'llanildi. Ma'dan o'g'itlarning yillik me'yori N₁₈₀P₁₃₀K₉₀ kg/ga. Fosforli, kaliyli o'g'itlar yerni haydashdan oldin solindi, azot tuplanish fazasida yomg'irdan oldin qo'llanildi.

Tajribalar Samarqand viloyati Ishtixon tumani Don va dukkakli ekinlar ilmiy – tadqiqot instituti Samarqand ilmiy – tajriba stansiyasida tajriba dalasida 2022-2023-yillarda o'tkazildi. Tajribada rapsning "Yasna" navi 25-28.09; 10-13.10; 25-28.10. muddatlarda, ekish me'yorlari 1,5; 2,0; 2,5 mln unuvchan urug'/ga ni tashkil qildi. Ekish me'yorlarida nazorat qilib 1.5 mln unuvchan urug'/ga olindi. Bitta paykalchani yuzasi 108 m², uzunligi – 10 m, eni 3.6 m bo'lib, hisobga olinadigan maydon 50 m². Tajriba 9 ta variant 4 qaytariqli bo'lib, paykalchalar ketma-ket tartibda joylashtirildi.

Dala va laboratoriya tadqiqotlari, o'simliklardagi biometrik va fenologik kuzatuvlar hamda turli tahlillar «Dala tajribalarini o'tkazish uslublari», Методы агрохимических анализов почв и растений», «Методы агрофизических исследований», «Методические указания по проведению полевых опытов с кормовыми культурами» kabi uslubiy qo'llanmalar asosida amalga oshirilgan. Tajribalarda olingan natijalarning statistik

tahlili Б.А.Доспехов uslubi bo'yicha bajarilgan. Kuzgi rapsda fenologik kuzatuvlarni o'tkazishda «Методика Государственного сортоиспытания сельскохозяйственных культур» qo'llanmasidan foydalanilgan.

Olingan natijalarning muhokomasi. Ekish muddat va me'yorlarini kuzgi raps urug'arining unib chiqishiga ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, kuzgi rapsning "Yasna" navini unib chiqishida erta muddat 25-28 sentyabr muddatda ekilgan variantlarda urug'lar ekilgan kundan 10 kun o'tgandan keyin 88.5- 91,7 % miqdorida, o'rta muddatda 10-13 oktyabrda ekilgan variantlarda 10 kundan keyin, 86.8-90,2 %, kechki muddatlarda 25-28 oktyabr ekilganda 83.6-,88.2% unib chiqdi. Ekish me'yorlarini ta'siri bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, garchi barcha ekilgan urug'lar bir urug'lik avlodiga mansub bo'lsada, ekish me'yorlarini oshirib borilishi bilan urug'larni unib chiqish dinamikasini ortganligi kuzatildi. Ekish me'yori 6 kg/ga bo'lganda unib chiqqan urug'lar miqdori 88,5%ni tashkil etgan bo'lsa, 8 k/ga ekilganda 90.1%ni, 10 kg/ga variantida 91,7%ni tashkil etdi. Urug' me'yorlarini ortib borishi bilan unib chiqish ortib borganligi kuzatildi. Kuzgi rapsni erta muddatda. 1.10 ekilganda 10 kunda, ekish muddatlari 13.10 ekilganda 11-12 kunga, 25.-28. 10 muddatda ekilganda 12-14 kunda to'liq unib chiqdi.

Raps rivolanishi davomida ildiz otish-maysalanish, to'pbarg hosil qilish, qishlash, umuman vegetasion davr oxirigacha maydon birligidagi o'simliklar soni kamayib bordi. Tajribamiz turli muddatlarda ekilib, har xil me'yorlar qo'llanilganda kuzgi rapsning "Yasna" navining qishdan keyin saqlanib qolgan maysalari dala unuvchanligi bilan taqqoslanganda, qishdan saqlanib qolgan o'simliklar urug'dala unuvchanligiga nisbatan ekish muddatlarini kechikishi va me'yorlarini oshishi bilan qishlovdan chiqqan o'simliklar soni kamayishi kuzatildi.

Kuzgi rapsni "Yasna" navini erta muddatda (1.10) gektariga 1,5 mln/dona ekilgan variantda nobud bo'lgan o'simliklar soni 3,1%ni, gektariga gektariga 2.0 mln/dona ekilganda 4,4%ni, 2.5 mln/dona ekilgan variantda esa 6,5%ni tashkil etdi. Xuddi shunday qonuniyat (16.10) ekilgan variantlarda ham kuzatilib, ko'rsatkichlar tegishli ravishda 5,1-7,8-8,5% bo'lganligi aniqlandi.

Kuzgi raps navlarida ekish me'yorlari va muddatlarining kechikisbo'yi va barglar soniga bo'lgan ta'siri bo'yicha o'tkazilgan tadqiqotlarda mazkur o'simlikda ham ekish me'yorlari bilan ekish

1-jadval.

Kuzgi rapsning urug'larining dala unuvchanligi, qishlab chiqish darajasiga ekish muddat va me'yorlarining ta'siri, (2022-2023yy).

T/r	Ekish muddatlari	Ekish me'yorlari, mln.dona/ga	1m ² ga ekilgan urug'lar soni, dona	Urug'larning unuvchanligi, 1 m ² da		Qishlab chiqqan o'simliklar	
				dona	%	dona	%
1	25-28.09	1,5 mln.dona/ga (nazorat)	150	132.6	88,5	120.2	90,6
2		2,0 mln.dona/ga	200	180.2	90,1	160,6	89.1
3		2,5 mln.dona/ga	250	229.6	91,7	200.5	87.3
4	10-13.10	1,5 mln.dona/ga (nazorat)	150	130.2	86,8	115.6	88.7
5		2,0 mln.dona/ga	200	176.4	88,2	154.7	87.6
6		2,5 mln.dona/ga	250	225.6	90,2	190,5	86.2
7	25-28.10	1,5 mln.dona/ga (nazorat)	150	125.4	83,6	110.2	87.8
8		2,0 mln.dona/ga	200	171.3	85,6	149.5	87.2
9		2,5 mln.dona/ga	250	220.7	88.2	185.5	84.0

муддатларини о'зaro bog'liqligi aniqlandi.

Tajribamizda o'simlik bo'yini o'sishi, rivojlaniishini yuqori darajasi asosan bahor oylarida kuzatildi. Amal davrini oxirida o'simlik bo'yining balandligi o'rtacha 93,1-111,8 smni tashkil etdi.

O'simlikni amal davri oxirida (01.06.) olingan ma'lumotlarga ko'ra, rapsning "Yasna" navini erta muddatda (1.10) gektariga 1,5 mln dona unuvchan urug' ekilganda bo'yining balandligi 102,3 smni, o'rta va yuqori me'yorda ekilgan 3 va 4-variantlarda esa tegishli ravishda 107,4-110,1 smni tashkil etdi. Yoki, raps o'rta muddatlarda ekilganda bu ko'rsatkichlar ekish me'rlari bo'yicha tegishli ravishda 95,6; 98,8; 102,4 smni, kech muddatlarda ekilganda esa 95,2; 98,1; 99,1 smni tashkil etdi.

Ekish muddatlari bo'yicha olingan ma'lumotlarga ko'ra, o'simlikda eng yuqori bo'yining balandligi erta muddatlarda ekilgan variantlarda kuzatildi. O'simliklarning bo'yi erta ekilgan variantlarda o'rta muddatda ekilgan variantlarga nisbatan 6,6-8,6 smga, kech ekilgan variantlarga nisbatan esa 6,9-11,0 smga baland bo'lganligi aniqlandi.

Kuzgi rapsda barglarning o'sishi va rivojlanishi bo'yicha barglarning o'sishi o'simlik unib chiqqanidan boshlab amalga osha boshladi. 15 noyabrda bajarilgan fenologik ma'lumotlarga ko'ra, har ikkala navda ham ekish me'yorlari hamda muddatlaridan kelib chiqib, barglar soni bitta o'simlikda o'rtacha 3,1 donadan 9,8 donani tashkil etdi.

Ta'kidlash kerakki, kuzgi rapsda barglarning rivojlanish davri aprel oyiga qadar davom etib, aprel oyidan keyin barglar o'z faoliyatini qariyb to'xtatib pastki shoxlardagi joylashganlari sarg'ayib, to'kila boshlaydi.

Kuzgi rapsni "Yasna" navida barglarning me'yoriy o'sishi va rivojlanishi ekish me'yori gektariga 2,0 mln/dona bo'lganda kuzatildi. Ma'lumotlarga ko'ra, erta ekilgan muddatda raps gektariga 1,5 mln/dona ekilganda o'simlikda barglar soni o'rtacha 36,1 donani, 2. mln/dona ekilganda 38,6 donani, 2,5 mln/dona ekilganda esa 38,4 donani, 16.10 muddatda ekilganda ekish me'yorlari bo'yicha tegishli ravishda 40,6- 41,6 donani tashkil etdi.

Kuzgi raps gektariga 2,0 mln/dona ekilganda gektariga 1,5 mln/dona ekilganga nisbatan barglar soni 2,5 dona, gektariga 2,5 mln/dona ekilganga nisbatan esa 2,3 dona ko'p bo'lishi aniqlandi.

"Yasna" navini erta muddatda (1.10) gektariga 2,0 mln/dona ekilganda rapsdagi barglar soni boshqa variantlarga nisbatan

bitta o'simlikda 3,0 donadan 12,0 donagacha ko'p bo'ladi. Bu esa kelgusida o'simlikni yuqori va sifatli hosil to'plashida zamin bo'lib xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining ko'rsatishicha ekish muddatlari va me'yorlari rapsning "Yasna"navi urug' hosildorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Erta muddat 25-28 sentyabrda, o'rta muddat ekilganda raps urug' hosildorligi 2,0 mln urug'ekilgan paykalchalarda 31,4 s/ga ni, o'rta muddat 10-13 oktyabrda 2,0 mln urug'/ga ekilganda 33,4s/ga ni, kech 25-28 oktyabrda 2,0 mln urug' /ga ekilganda hosildorlik 29,5 s/ga ni tashkil qilishi aniqlandi. Ekish me'yorlarinig 2,0 mln /ga dan 1,5 mln/ga kamaytirish yoki 2,5 mln/ga oshirish urug' hosildorligini kamayishiga olib keldi. Ekish muddatlarinig10-13 oktyabrdan oldin yoki kech ekilishi natijasida urug' hosildorligining kamayishi kuzatildi. Binobarin Rapsning Yasna navidan eng yuqori urug' hosili olish uchun ekish 10-13 oktyabrda, 2,0 mln urug'/ga me'yorda ekil ekilishi tavsiya etiladi.

Xulosa. Tadqiqotlarimizda, raps ekish muddatlarining 25-28 sentyabrdan 25-28 oktyabrgacha kechikishi urug'larning dala sharoitida unuvchanligini barcha ekish me'yorlarida kamayishi, barcha ekish muddatlarida ekish me'yorlarining oshib borishi bilan urug'larning dala sharoitida unuvchanligini oshib borish qonuniyati kuzatildi.

Samarqand viloyati o'tloqi bo'z tuproqlari sharoitida kuzgi rapsning Yasna navi urug'larining dala unuvchanligiga, o'sishi, rivojlanishi, urug' hosildorligiga ekish muddatlari va me'yorlari sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Eng maqbul ekish muddati 10-13 oktyabr, ekish me'yori gektariga 2,0 mln. dona urug'/ga ekanligi aniqlandi.

Urug'lar 10-13- oktabrda ekilganda urug'larnig dala unuvchanligi, o'simliklarning qishlab chiqishi, bo'yi va 1 dona o'simlikdagi barglar soni boshqa ekish muddatlariga nisbatan sezilarli darajada ko'p bo'lishi kuzatildi.

Eng yuqori urug' hosildorligi 10-13 oktabrda gektariga 2mln unuvchan urug' ekilganda 33,7s/ga bo'lishi qayd etildi. Ekish muddatlarini erta 25-28-sentabrda yoki kech 25-28-oktabrda o'tkazilganda hosildorlikni 10-13-oktabrda ekilgan paykalchalrdagiga nisbatan sezilarli darajada kamayib borishi, ekish me'yorlarini barcha ekish muddatlarida 2 mln unuvchan urug'/ga me'yordan oshirish yoki kamaytirish urug' hosildorligini hamda o'simlik biometric ko'rsatgichlarni kamayishga olib kelishi aniqlandi.

ADABIYOTLAR:

1. Бўриев Х., Назаров Х., Умидов Ш. Баҳорги рапс навларининг морфо- биологик белгилари // АГРО ИЛМ. - 2018. -№ 2(52). -Б. 33-34.
2. Ёрматова Д., Хушвақтова Х., Якубов С. Кузги рапс – бебаҳо мойли экин // Ўзбекистон қишлоқ ҳўжалиги. - 2018. -№ 10. -Б. 8.
3. Кузнесова Г.Н. Срок сева и норма высева ярового рапса в Западной Сибири. // Земледелие. 2009. - № 2. - С. 32–33.
4. Орипов.Р.О Ўзбекистон деҳқончилигида қишки оралик экинларини истиқболлари // Халқаро илмий-амалий Конференция мақолалар тўплами.Тупроқ унумдорлигини ошириш илмий ва амалий. Тошкент, 2007. - Б. 60-69. 88.
5. Фатихов И.Ш., Салимова Ч.М. Урожайность семян ярового рапса.Галант при разных сроках посева и нормах высева. // Аграрный вестник Урала. - 2009. - № 12 (66). - С. 52–54.
6. Артемов И.В. Научные основы технологии возделывания и интенсификации производства ярового рапса на семена и кормовые сели в условиях Централно-Черноземной зоны Российской Федерации: дис... в форме науч. доклада д-ра с.-х. наук. - М., 1992. - 84 с. 12. Асхадуллин Д.Ф. Рапс в Республике Татарстан. // Кормопроизводство. - 2010. - № 4. - С. 19– 21.
7. Ахметгареев Р.Ф. Рапс – выгодная культура для Кемеровской области.- Кемерово: КГСХИ, 2008. С. 187-189
8. Орипов Р. Халилов Н. Ўсимликшунослик(дарслик).Ўзбекистон файласуфлар жамияти.2008-386 б.
9. Н.Халилов, У.М.Халилов. Б.Т.Мавлонов. Ресурсосберегающая технология интенсивных кормовых севооборотов. Regional innovation systems in agriculture, international conference, June 3-4, Samarkand: 2015, 255-258 p.
10. Халилов У.М. Элмуродов.М - Интенсивные кормовые севообороты и проблемы сельскохозяйственной экологии "Қишлоқ ҳўжалигида ресурстежамкор технологияларни яратиш ва уларни ишлаб чиқаришга жорий этиш" мавзусидаги Республика конференцияси, 2014 йил 20-21 ноябр II қисм, 101-104 б.

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI HUDUDIDA TARQALGAN QORAKO‘LCHILIK YAYLOV TIPLARI

Boboyeva Nafisa Asatulloyevna, qishloq xo‘jaligi falsafa fanlari doktori, (PhD),
Abdisalomova Mohinur Abdumurod qizi, talaba,
 Samarqand davlat veterinariya meditsinasi, chorvachilik va biotexnologiyalar universiteti.

Annotatsiya. Ushbu maqolada O‘zbekiston Respublikasi hududida tarqalgan qorako‘lchilik yaylov tiplari, ularning maydoni, geografik joylashgan o‘rni, rel‘efi, tabiiy-iqlim va tuproq sharoiti, yaylov tipi fitotsenozlari va ularning xarakteristikasi hamda ushbu yaylov tiplarida yuqori hosilli ozuqabop yaylov-cho‘l o‘simliklarining agrofytotsenozlarini yaratish texnologiyasi bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: yaylov tiplari, agrofittsenozlar, ozuqabop yaylov-cho‘l o‘simliklari, tabiiy-iqlim va tuproq sharoitlari.

Аннотация. В данной статье рассмотрены типы каракулевых пастбищ, распространённые на территории Республики Узбекистан, а также их площадь, географическое расположение, рельеф, природно-климатические и почвенные условия, фитоценозы пастбищного типа и их продуктивность. Описана технология создания агрофитоценозов высокопродуктивных кормовых пустынно-пастбищных растений в различных типах пастбищ.

Ключевые слова: типы пастбищ, агрофитоценозы, кормовые пустынно-пастбищные растения, природно-почвенные условия.

Abstract. This article examines the types of Karakul pastures common on the territory of the Republic of Uzbekistan, as well as their area, geographical location, relief, natural, climatic and soil conditions, pasture-type phytocenoses and their productivity. The technology for creating agrophytocenoses of forage desert-pasture plants in various types of pastures is described.

Key words: types of pastures, agrophytocenoses, forage desert-pasture plants, natural, climatic and soil conditions.

Kirish. O‘zbekiston Respublikasi yer fondining qariyb teng yarmi, ya‘ni 21 mln gektar yer maydoni yaylov hududlariga to‘g‘ri keladi. Bu yaylovlar yaylov chorvachiligining eng asosiy va arzon ozuqa manbai sifatida xizmat qiladi. Biroq soha barqaror rivojlanish yo‘liga hali o‘tib ulgurgani yo‘q. Yaylov hosildorligi yog‘in-sochin miqdori bilan bog‘liqligi, qurg‘oqchil yillarda yaylov chorvachiligi katta iqtisodiy talofat ko‘rish, yaylov yuklamasi va yaylov sig‘imining kamayib ketishi kabi salbiy holatlar, yaylovlarda ozuqabop yaylov-cho‘l o‘simliklari agrofytotsenozlarini yaratish texnologiyalarini takomillashtirishni taqozo etadi [1].

Bundan tashqari, yaylov ekologik holatini yaxshilash maqsadida yaylov agrofittsenozlarini yaratish va tubdan yaxshilash muhim o‘rin tutadi. Shu sababdan yaylov tipi bo‘yicha yaylov monitoringini olib borish dolzarb masala sifatida qaraladi. Yaylov monitoringini olib borish, yaylov tiplari maxsuldorligini oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston hududida tarqalgan qorako‘lchilik yaylovlari asosan to‘rt tipga bo‘linadi: ular efemer va efemeroidli yaylov tipi, buta-barra o‘tli yaylov tipi, yarim buta-barra o‘tli yaylov tipi yoki shuvoq-barra o‘tli yaylov tipi hamda sho‘ra o‘tli yaylov tipi. Efemer va efemeroidli yaylov tipi asosan adir mintqasida joylashgan bo‘lib, yaylov agrofittsenozlari bo‘z tuproqlar sharoitida shakllanadi. Bu yaylov tipining respublikamizdagi maydoni 1,5 mln gektardan ziyoddir hamda asosan Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax va Navoiy viloyatlarida tarqalgan [4]. Efemer va efemeroidli yaylov tipi o‘simlik qoplamini efemer va efemeroid o‘simliklardan tashkil topgan bo‘lib, ularning ildiz tizimi tuproqning yuza qismida qalin chim qatlamini hosil qiladi hamda yaylov tuproqlarini eroziyadan muhofaza qiladi. Efemer va efemeroidlar yaylov chorvasi uchun erta bahorgi muhim, sershira, vitaminlarga boy to‘yimli ozuqa manbai hisoblanadi. Efemer va efemeroidli yaylovlarning yillik ozuqa zahiralari ob-havoning kelishiga bog‘liq bo‘lib, bahor serman kelgan yillari o‘simlik qoplamining blandligi 50-60 smni, o‘rtacha yillarda 20-30 smni, noqulay yillarda 8-20

sm ni tashkil etadi. Hosildorligi ham shunga mutanosib ravishda 2 tsentnerdan 7 tsentnerni tashkil etsa, o‘simlik turlari 40-65 turdan iborat. Efemer va efemeroidli yaylov tipi o‘simliklarining hayotiy davomiyligi qisqa, ya‘ni faqatgina bahor fasliga to‘g‘ri kelgani uchun, ulardan kuz-qish oylari foydalanib bo‘lmaydi. Shu sababdan adir yaylovlari buta va yarim butalardan foydalanib kuzgi-qishgi yaylovlar barpo etish zarur [3].

Buta-barra o‘tli yaylovlar asosan Buxoro, Navoiy va Qoraqalpog‘istonda tarqalgan bo‘lib, maydoni 9 mln gektardan ortiq. Qashqadaryo, Surxondaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida ularning maydoni 200 ming gektar atrofida [4]. Bu yaylov tipi qumli cho‘l hududiga to‘g‘ri kelib, o‘simlik qoplamini 3-4 yarusda joylashgan: birinchi yarusda balandligi 1,5-3 metrgacha bo‘lgan daraxtsimon butalar, ikkinchi yarusda balandligi 0,5-1 metrgacha bo‘lgan yarim-butalar, uchunchi va to‘rtinchi yarusda esa o‘tchil o‘simliklar joylashgan. Bu yaylov tipidagi o‘simlik qoplamining hosildorligi 3-7 tsentnerni tashkil etgani holda ustunlik jihati shundan iboratki, yilning qanday kelishishidan qat‘iy nazar, yaylovlarda ozuqaning mavjudligidadir. Yog‘ingarchilik kam bo‘lgan yillari barra o‘tlar yaxshi rivojlanmasada, biroq buta va yarim butalar yaxshi rivojlanadi. Shu boisdan buta-barra o‘tli yaylovlar xo‘jalik nuqtai nazardan qulay yaylov tipi hisoblanadi. Bunday yaylovlarning yana bir xo‘jalik afzalligi shundaki, bu yerdagi daraxtsimon butalar-saksavul, qandim, cherkez va hokazo, ob-havoning noqulay kelgan kunlarida chorva mollari uchun boshpana vazifasini o‘taydi [2].

Yarim-butabarra o‘tli yoki shuvoq-barra o‘tli yaylov tipi asosan bo‘z, qo‘ng‘ir bo‘z, sur-qo‘ng‘ir tuproqlarda jami 6,7 mln dan ortiq maydonda tarqalgan. o‘simlik qoplamini ikki yarusdan: yarim buta va o‘tchil o‘simliklardan iborat. Ob-havo qulay kelgan yillari o‘tchil o‘simliklarning turlari 60 turdan oshishi mumkin. Shuvoq-barra o‘tli yaylovlarning muhim xo‘jalik xususiyatlaridan biri-ularidan yil davomida foydalanish mumkin ekanligida.

Sho‘ra o‘tli yaylov tipi maydoni 1,5 mln gektar bo‘lib, cho‘l